

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası, filologiya fanlari nomzodi, professor Adizova Nodira Baxtiyrovna taqrizi ostida

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti.

+998973026869

Annotatsiya: Maqolada sinergetik yondashuv asosida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asar tahlilida fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, badiiy asarlarni ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanib o'rgatishning muhim jihatlari ochib berilgan. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

Аннотация: В статье на основе синергетического подхода рассмотрены важные аспекты развития научных компетенций при анализе произведений искусства на родном языке и занятиях по грамотности чтения, а также эффективное использование образовательных технологий при обучении произведениям искусства. выделены. На примерах доказывается необходимость учитывать психологические и возрастные особенности учащихся при использовании дидактических средств.

Abstract: In the article, on the basis of a synergistic approach, the important aspects of the development of scientific competences in the analysis of works of art in native language and reading literacy classes, and the effective use of educational technologies in teaching works of art are highlighted. The need to take into account the psychological and age characteristics of students in the use of didactic tools is proven on the basis of examples.

Kalit so'zlar: sinergetika, pedagogik texnologiya ,innovation texnologiya, ta'lim-tarbiya, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi.

Ключевые слова: синергетика, педагогическая технология, инновационная технология, образование, дидактический инструмент, эффективность обучения.

Key words: synergetics, pedagogical technology, innovative technology, education, didactic tool, educational efficiency.

Kirish. Sharq qadim-qadimdan o'zining ilm-fan va madaniyati bilan butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelgan. Azal-azaldan qolib kelayotgan sharqona madaniyat va ilm-ma'rifat asrlar davomida yuksaldi, sayqal topdi. Buning negizi, albatta, farzandlarga berilgan ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi. Har bir davlat, jamiyat borki o'zining kelajagini yosh avlodida ko'radi. Farzandlarning kamol topmog'i, jamiyat ravnaqi va osoyishtaligi uchun o'z hissasini qo'shmog'i ularga beriladigan ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Zamonaviy talqinda biz komil shaxs qiyofasida yuksak ta'lim va tarbiyaga ega bo'lgan, yangilik yaratishga intiluvchi, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, boshqalarga o'zining ilg'or fikrlari bilan ta'sir qila oladigan, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama mukammal shaxsni tushunamiz. Shaxsning mukammalligi uning amalga oshirgan ishlari va nutqida namoyon bo'ladi.

Bola nutqining takomillashuvida ona tili ta'limi katta imkoniyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ona tili darslarida bolaning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish parallel ravishda olib boriladi. Fonetik, grafik, orfografik, orfoepik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

tuzilgan ogʻzaki va yozma nutq ravon va mazmunli boʻladi. Ravon nutq taʼsirchanligi, tushunarligi, obrazlilik bilan tinglovchiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Bola oʻz nutqini ravon, tushunarli va obrazli qilib ifodalashi ularda kompetensiyalarni shakllantirish natijasidir. Oʻquvchi kompetentlikka ega boʻlsa nafaqat ona tili, balki, boshqa fanlarni oʻzlashtirishda ham ijtimoiy faol harakat qilib, ijobiy natijalarga erisha oladi.

Bolaning tafakkuri, ijodiylik, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan taʼlim tizimida boshlangʻich sinfni tugatayotgan har bir oʻquvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qoʻyadi. Binobarin, oʻqitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta koʻrib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal boʻlib, oʻquvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori boʻlishida xizmat qiladi.

Materiallar va uslublari. Bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan, ona tilining imkoniyatlaridan unumli foydalanadigan, oʻzaro munosabatlarda erkin va faol, chet tillarda ravon soʻzlasha oladigan avlodni tarbiyalash uzluksiz taʼlim oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻquvchilarning kommunikativ kompetentligini oshirish, fikrini tushunarli, aniq va loʻnda bayon etish koʻnikmalarini shakllantirish til oʻqitish metodikasi oldiga bir qator masalalarni koʻndalang qoʻyadiki, bu bevosita ona tilini oʻqitish boʻyicha muayyan tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda. Binobarin, bugungi tezkor axborot asrida global tafakkurli yoshlarni kamol toptirish masalasi bevosita til taʼlimida ona tili bilan chet tiliga doir materiallarni integratsiyalab oʻqitish masalasini ham ilgari suradi.

Jahon taʼlim muassasalarida ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitish metodikasini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirishning kognitiv mexanizmlari taʼlim tizimiga tatbiq etilgan. Yevrora Ittifoqi Hayʼatining 2000 yilda qabul qilgan “Umr boʻyi taʼlim olish masalalari boʻyicha Memorandum”da barcha taʼlim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, umr boʻyi taʼlim olish (lifelong learning) istiqbollari asosida Yevrora Ittifoqining umumiy oʻrta taʼlim beruvchi maktablar miqyosida xalqaro almashinuvni (oʻquvchilar almashinuvini) tashkil etuvshi “Eurora” maxsus dasturlarini taʼlim jarayoniga tatbiq etish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon taʼlim va ilmiy tadqiqot muassasalarida maktab taʼlimi mazmunini har oʻn yillikda takomillashtirish, oʻquvchilar tomonidan boshlangʻich taʼlim maʼlumotining samarali oʻzlashtirilganini tasdiqlovchi umumiy bitiruv imtihonini torshirish asosida oʻrta maktabga oʻtishni taʼminlashning meʼyoriy asoslarini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning taʼlimga boʻlgan qiziqish va ishtiyoqlarini rivojlantirishning nazariy masalalarini kengaytirish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, oʻquvchilarning kitobxonlik tajribasi hamda axborotlardan maqsadli foydalanish malakalarini rivojlantirish, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining badiiy asarlar ustida ishlash orqali nutqini oʻstirish, nutq oʻstirishda badiiy-ifodali, hissiy-estetik imkoniyatlarni kengaytirish boʻyicha ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor berilmoqda.

Natijalar va muhokamalar. Respublikamizda davlat va nodavlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarida, boshlangʻich taʼlim davrida RIRLS xalqaro baholash dasturlari boʻyicha tadqiqot metodlari asosida oʻquvchilar nutqini oʻstirishning meʼyoriy asoslari yaratildi, boshlangʻich taʼlimning moddiy-texnik bazasi takomillashtirildi. Jumladan, “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi... taʼlim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, oʻqitish metodlari, taʼlim standartlari, darslik va oʻquv qoʻllanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilgʻor xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy anʼana va qadriyatlarga

suyanish muhimligi kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu esa, ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi. O'quvchilarda nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ona tili fanining o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'limda ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'z g'aralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ko'zda tutadi

Bugungi kunda boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchining ijodkorligiga, uning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun shuningdek, o'quvchida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir ko'pgina mashqlarni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda kitoblar bilan birgalikda mashq daftarlarini ham berilishi ularning mavzuni mustahkamlashi uchun yanada samarali usullardan biri desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bugungi kunda darslikda berilgan badiiy asarlar o'quvchining tinglab tushunish qobiliyati, fonetik jihatdan unli va undosh harflar talaffuzi, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish qobiliyati doir ko'pgina matnlarni uchratishimiz mumkin.

O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matn o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

O'quvchining nutqini o'stirish uchun albatta badiiy asarlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda hikoya, kichkina matn o'qishga qiziqqan bola, albatta yuqori sinfda kattaroq asar o'qishni boshlaydi va bu ko'nikmaga aylanib boradi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida ham bir qancha hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Biz o'zimizga savol beraylik, matn o'qish, hikoya o'qish bolaga nima beradi? Biz uni o'quvchiga qanday usullar bilan yetkazsak, samarali natijaga erishamiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xato xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.

Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish va takomillashtirish, o'z-o'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlantirishdan iborat. Shunday qilib, "pedagogik sinergetika" deb nomlangan pedagogik bilimlarning yangi yo'nalishi paydo bo'ldiki, bu ta'lim tizimlarini o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish qonuniyatlari bilan asoslanadi. Pedagogik sinergetika o'zini o'zi aniqlash va shaxsni rivojlantirish muammolarini rivojlanishiga ochiqlik, birgalikdagi ijod va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan yangicha yondashishga imkon beradi. Dunyoni sinergetik anglash insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: sinergetik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi. Sinergetika ota-onalarni virtual-pedagogik jarayonning sub'yekti sifatida inson hayotining eng

murakkab ichki qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltiradi. Sinergetika pedagogik nazariyani rivojlantirishda yo'qolgan aloqalarni amaliy haqiqa bilan tiklashga, dialog tizimining rivojlanishi, ochiqlik, ta'lim tizimining turli tarkibiy qismlari va uning sub'yektlari o'rtasida "kommunikativ ko'priq" yaratishga imkon beradi. Ota-onalarni virtual-pedagogik madaniyatini yuksaltirishda sinergetik yondashuv ularning ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shuningdek, sinergetika yangi pedagogikaning "sherigi" (neopedagogika) va lotin tilidan birgalikda energiya va birgalikda hamkor deb tarjima qilingan. Binobarin, sinergetika ham, yangi pedagogika ham ochiq muloqotlar, to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa, qat'iy ta'lim sarguzashtlari, o'yinlar doirasida ishlaydi. Sinergetik ta'lim, yangi pedagogika singari, o'z-o'zini tarbiyalash, insonni o'z imkoniyatlarini rag'batlantiradigan, o'z taqdirini belgilashdir. Bizning fikrimizcha, sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning har bir sub'yektini (ota-ona, talaba, o'qituvchi) rivojlanishdan o'z-o'zini rivojlantirishga o'tishini amalga oshiradigan rivojlanayotgan kichik tizimlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Shuning uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri, davlat ijtimoiy siyosatining bir qismi bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z g'oya, fikr va qarashlarini faoliyati davomida amalda qo'llaydi va yangilik yaratadi. Ana shu yangilik yaratish ijodkorlik bo'lib, tafakkurning eng oliy shaklidir. Qo'yilgan vazifani hal etishda ma'lum bo'lgan usullardan foydalanmaydi. Faoliyatning maqsadi va usullarning tarkibi sifatida mahorat va tashabbuskorlikning asosiy sharti sifatida uni ijodiy faoliyat darajasiga ko'taradi.

Xulosa. Demak, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog'liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi. Shunday ekan, sinergetik yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'qitilishda o'quvchilarning diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi muhim bo'lib, ularning mazmun-mohiyati turlicha, biroq bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. O'quvchilarga lingvistik tushunchalarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutqni grammatik, semantik va stilistik jihatdan to'g'ri tuzishni o'rgatishni nazarda tutadi. Sinergetik yondashuv asosida ona tili ta'limida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga pedagogik, psixologik yondashuv metodik hodisa sifatida qaralib, kommunikativ madaniyatini rivojlantirish hamda barkamol shaxs bo'lib yetishuvda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Nurullayevna A. F. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish //барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

5. Kurbanova S. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса курбанова шоира нарзуллаевна, абдуллаева феруза, очилова го //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.
7. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
8. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o‘rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloeyvna Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
9. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
10. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5